

ZAMONAVIY QURILISH TEXNOLOGIYALARI

Ko'chiyeva Dinara Isomidin qizi

Surxondaryo viloyati Sherobod tumani

33-maktab tasviriy san'at va chizmachilik

fani o'qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy qurilish texnologiyalari va ularning qurilish sohasidagi ahamiyati tahlil qilinadi. 3D-bosma texnologiyalari, modul va prefabrik qurilish usullari, shuningdek, ekologik toza materiallardan foydalanish misolida innovatsion yondashuvlarning afzalliklari yoritiladi. Qurilish jarayonlarini avtomatlashtirish va "aqlli uy" tizimlari kabi texnologiyalar yordamida samaradorlikni oshirish masalalari muhokama qilinadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarning ekologik ahamiyati, "yashil" binolar konsepsiyasi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Mazkur maqola qurilish sohasi mutaxassislari va ushbu soha bilan qiziquvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar:

Zamonaviy qurilish texnologiyalari, 3D-bosma texnologiyalari, qurilish, qurilish, jamoat, qishloq.

Kirish

Zamonaviy qurilish texnologiyalarining ahamiyati

Yurtimizda bunyodkorlik ishlari ko'lami kengayib borgani sari yangi, innovatsion va sifatli qurilish materiallariga bo'lgan talabidan kelib chiqib, qurilish materiallari sanoati sohasida olib borilayotgan tub islohotlar natijasida yangi turdagi innovatsion,

eksportbop va import o'rnini bosuvchi qurilish materiallariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Mamlakatimizda qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish, sohaga xorijiy investorlarni keng jalb qilish, sifatli, jahon talablariga to'la javob beruvchi, arzon mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha respublikada tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Natijada yangi quvvatlar ishga tushirilmoqda, ishlab chiqarish hajmi oshmoqda. Tarmoqni jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilish uchun qulay shartsharoitlar yaratish, mahalliy mineral xom ashyo resurslarini qayta ishlashga investitsiyalarni jalb qilish va qurilish materiallarini eksport qilish hajmlarini oshirish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-son qarori qabul qilindi.

Sir emaski, O'zbekistonda so'nggi yillarda barcha sohalar kabi qurilish sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Tizimni yanada takomillashtirishga qaratilgan hukumat va davlat rahbarining farmon hamda qarorlari, qabul qilingan davlat dasturlari, ular ijrosini ta'minlash, tarmoqda islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar natijada bunyodkorlik ko'lamlari tobora kengayib bormoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 mayida PQ-2936-son O'zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tarkibiy tuzilmasi tubdan o'zgartirildi va yangi vazifalar qo'yildi. Qo'mitaning hududiy bo'linmalari qo'shimcha shtat birliklari bilan kengaytirildi. Natijada, 11 ta hududda "O'zshaharsozlik" va Samarqand shahrida "Toshkentboshplan" loyiha instituti filiallari, shuningdek, 13 ta hududda 26 ta yetakchi loyiha tashkiloti ochildi. Toshkent va Samarqand arxitektura-qurilish institutlari hamda 14 ta qurilish kasb-hunar kolleji qo'mita tasarrufiga o'tkazildi.

Zamonaviy qurilish texnologiyalarining hozirgi kundagi afzalliklari

O'zbekiston Respublikasida yangidan-yangi ko'plab turar-joy, jamoat, sanoat, qishloq qurilish binolari va inshootlari barpo etilmoqda, keng miqyosdagi kapital-ta'mirlash ishlari bajarilmoqda.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov rahnamoligida bunyodkorlik ishlari ko'lami kengayib, qurilish materiallariga bo'lgan talab hamda ularni ishlab chiqarish hajmi tobora oshgan edi. Bugun shaharu qishloqlarimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari samaralari keng va ravon yo'llar, zamonaviy ko'priklar, yuksak me'moriy yechimga ega mahobatli inshoot va imoratlar, shinam uy-joylar, milliy qadriyatlarimizni o'zida mujassam etgan koshonalarda o'z ifodasini topayotir. Bu xalqimiz turmush tarzi, hayoti va yashash sharoiti tubdan o'zgarayotganidan dalolatdir.

Turar joy yoki bino-inshoot qurib, undan uzoq yillar foydalanishni maqsad qilgan har qanday kishi birinchi galda, imorat poydevorini mustahkam qurilish materiallaridan barpo etishga intiladi. Ilm-fan va innovatsion texnologiyalar tobora rivojlanib borayotgan bugungi dunyoda energiyatejamkor, arzon va sifatli qurilish materiallariga talab ortgan. Bugungi kunda barcha sohalar, ayniqsa, qurilish tizimida energiya tejamkor mahsulotlardan foydalanishni davrning o'zi taqazo etmoqda. Bir qancha afzalliklarga ega avtoklav gazobetonlar esa ana shu talabga javob beradi. Bundan tashqari, u asosan mahalliy xomashyodan tayyorlangani bois, tan narxi shu turdagi boshqa qurilish materiallaridan bir necha barobar arzon. Mahsulot sifatli bo'lsa, unga talabgor doim topiladi. Korxonalar hozirda mahalliy yirik tashkilotlar bilan hamkorlik kelishuvlarini imzolagan. Uzoq yillar davomida o'z mustahkamligini saqlab turadigan gazobetonlarga aholi orasida ham qiziqish ortib bormoqda. Tadbirkorlar yaqin yillarda ushbu mahsulot nafaqat yirik inshootlar, balki xalqimiz xonadonlari qurilishida keng foydalanilishiga hissa qo'shishni maqsad qilgan.

Xulosa:

Zamonaviy qurilish texnologiyalari bugungi kunda arxitektura va qurilish sohasida muhim o‘rin tutadi. Ushbu texnologiyalar qurilish jarayonlarini tezlashtirish, sifatni oshirish, ekologik muhitga zarar yetkazmaydigan yechimlar yaratish va energiya samaradorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. 3D bosib chiqarish, "aqlli" qurilish materiallari, ekologik toza uskunalari va BIM (Building Information Modeling) kabi tizimlarning keng qo‘llanilishi kelajakdagi qurilish standartlarini belgilamoqda.

Zamonaviy yondashuvlar orqali qurilish ishlari nafaqat samaraliroq, balki barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan holga kelmoqda. Shu sababli, bu texnologiyalarni rivojlantirish va ommalashtirish jamiyatimiz infratuzilmasining barqarorligi va aholining turmush darajasini oshirishda asosiy omillardan biri bo‘lib qoladi. Zamonaviy texnologiyalarga sarmoya kiritish va ularni milliy amaliyotda keng qo‘llash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Xolmirzayev. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bosh ilmiy xodimi. *Manba: Yangi O‘zbekiston gazetasi.* <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-qurilish-sohasida-tub-burilishlarni-amalga-oshirmoqda>
2. UDK 691 – Stroitelnye materialy i izdeliya. To‘laganov A.A., Kamilov X.X., Vohidov M.M., Sulstonov A.A. Zamonaviy qurilish materiallari, buyumlari va texnologiyalari. O.,quv qo,,llanma, Toshkent, TAQI, 2014. 129 b.
3. Zamonaviy qurilishga xos sifat. 17 Fevral 20212407. *Matn: Ирода Тошматова*